



EFTALIYLAR DAVLATI VA UNING TARAQQIYOTI

**Muhammadiyev Bilol
Ismoil o'g'li**

*Namangan davlat universiteti Ijtimoiy fanlar
fakulteti 3-bosqich talabasi
E-mail: bilolmuhammadiyev640@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'z davrining eng qudratli davlatlaridan biri bo'lgan eftaliylar, ularning O'rta Osiyoga kirib kelishi, bu hududda davlat qurishi, davlat boshqaruvi, aholisi hamda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayoti, shuningdek, Eron Sosoniylari bilan olib borgan kurashlari va inqirozi yoritiladi.

Kalit so'zlar: Sharqiy Turkiston, Yettisuv, Kushonlar, Sosoniylar, Hindiston, Sug'd, xunlar, massagetlar, Turk xoqonligi, Pero'z I, Vizantiya.

Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyo hududiga shimoldan va sharqdan, xususan Sharqiy Turkiston, Yettisuv hamda Oltoy tomondan ko'chmanchi qabilalar kirib kelib, o'z davlatlarini tuzganlar. Xioniylar, kidariylar va eftaliylar ham shular jumlasidandir. Ular Yevropa tomonlarga ko'chgan xunlar ortidan borib, turli sabablarga ko'ra qaytib kelgan va O'rta Osiyoning janubiy hududlariga harakat qilib, qisqa muddat ichida katta hududlarni egallab olganlar. Eftaliylar O'rta Osiyo tarixida muhim o'ringa ega.

Eftaliylar turli manbalarda turlicha, jumladan arman manbalarida "heptal", "hettal", "tetat"; yunon manbalarida "eftalit", "abdel", "eftal", "oq xunlar", arab manbalarida "xaytal", "xetal" kabi nomlar bilan tilga olinadilar. Hind manbalarida "xuna"; arab manbalarida garchi xaytal nomi bilan tilga olinsalarda, ba'zi hollarda ularni turklar deb ham tilga olingan. Arman manbalarida esa ular kushonlarning avlodi deb ta'kidlanadilar. Xitoy manbalarida eftaliylar "e-da", "e-diyen", "i-dan", "e-ta-i-lito" deb tilga olinadilar. Yuqorida tilga olingan nomlardan eftalit nomi ilmiy muomalaga qabul qilingan.

O'rta asr tarixchilarining asarlari orqali bizgacha eftaliylar haqida qiziqarli ma'lumotlar yetib kelgan. VI asr Vizantiya tarixchisi Prokopiy Kesariskiy eftaliylarni xun xalqlari deb yuritsada lekin tashqi ko'rinish jihatdan katta farq borligini ta'kidlaydi. Boshqa yana bir VI asr Vizantiya tarixchisi Agafiy Mirinskiy "Eftaliylar – bu xunlardir" deb ta'kidlaydi. Eftaliylar to'g'risidagi ma'lumotlar boshqa Vizantiya mualliflari, jumladan Prisk Paniyskiy (V asr), Menandr Protektor (VI asr), Zaxariy Ritor (VI asr), Kozma Indikoplava (VI asr), Feofilat Simokatta (VII asr) asarlarida uchraydi. Feofan Vizantiyskiyning ma'lumot berishicha eftaliylarning hukmdori Vahshunvor Eftalon bo'lib, xalq uning nomi bilan yuritilgan. Ammian Martsellin o'zining "Rim tarixi" asarida eftaliylarning tashqi ko'rinishi, ularning ko'mish

marosimlari, sosonoiylar bilan aloqalari haqida qimmatli ma'lumotlarni keltirib otadi.[5, b. 6].

Olimlar eftaliylarni miloddan avvalgi I asr bilan milodning IV asri o'rtalarida Yettisuvdan va yanada sharqroqdagi rayonlardan Orol dengizi bo'ylariga kelib qolgan qabilalar bilan aralashib ketgan holda turkiy tilini qabul qilgan Orol bo'yi sak-massaget qabilalarining avlodlaridirlar, degan g'oyani ilgari suradilar.[9, b. 109].

IV asrdanoq sustlashish jarayonini boshdan kechirib kelayotgan kushoniylar dastlab yuksalish sari intilayotgan yangi siyosiy kuch — hunlarga (xioniylarga), keyinchalik esa ularning boshqa bir tarmog'i bo'lgan eftaliylarga qarshi tura olmaganlar. Shu tariqa, V asrdan umuman Turon tarixida, xususan, o'zbek davlatchiligi tarixida yangi bosqich — eftaliylar hukmronligi davri boshlanadi. Taxminan, 457-yili eftaliylar yetakchisi Vaxshunvor (Axshunvor, Oq shunqor) Chag'oniyon, Toxariston, Badaxshonda hokimiyatni qo'lga oladi. Keyingi yillarda kunchiqarda Qorashahargacha, g'arbda Hirot va uning atroflari, janubda Shimoliy Hindistongacha bo'lgan ulkan hudud ular qo'li ostida qayta birlashtirilgani e'tiborga olinsa, eftaliylar boshqaruvi, asosan, kushoniylar idora qilgan mintaqaga to'g'ri kelishi ayon bo'ladi.

Eftaliylarning tashqi munosabatlarga xos masalalar ham eskicha edi. Ular ham g'arbiy chegaralarni sosoniylardan qo'riqlashlari lozim edi. Garchi ikki tomon o'rtasidagi dastlabki to'qnashuvlar V asr 30-yillaridayoq sodir bo'lgan bo'lsa-da, ammo hal qiluvchi kurashlar sosoniy hukmdori Piruz I davriga to'g'ri keladi. U ham Eron taxtiga deyarli Vaxshunvor davlat boshqaruviga kelgan paytda — 459-yili chiqqan. Nafaqat Piruz, balki uning akasi Ho'rmaz ham eftaliylar yordamida taxtni qo'lga kiritgani ma'lum. Eftaliylar va sosoniylar o'rtasidagi bu kabi munosabatlar sababini anglash qiyin emas. Chunki Ho'rmaz va Piruzlar o'z vaqtida taxt vorisi sifatida sosoniylar davlatining sharqiy viloyatlarini (Seyistondan Marvgacha bo'lgan hudud) boshqarganlar (Ho'rmaz 420–457-yillari; Piruz 457–459-yillari).[1, b. 106].

Eftaliylarning kuchayib ketayotganligidan xavfsiragan sosoniylar shohi Peroz eftaliylarga qarshi yurish qiladi. Ammo u yengilib asirga tushadi va yordam so'rab Vizantiyaga murojaat qiladi. Vizantiyadan yuborilgan pul evaziga asirlikdan ozod qilingan Peroz eftaliylarga ilgari bosib olingan Taliqon shahrini qaytarib berish va Varaxran V tomonidan belgilangan chegaradan nariga o'tmaslik majburiyatini oladi. Taliqon shahrida o'rnatilgan chegara minorasi fillar yordamida ko'chiriladi. Ammo Peroz o'z va'dasini bajarmaydi va eftaliylar ustiga ikkinchi marta qo'shin tortib keladi. Ikkinchi marta ham mag'lubiyatga uchrab, Suriya manbalarida ta'kidlanishicha, u ikkinchi marta asir tushadi. Sosoniylar shohi eftaliylarga kumush dirhamlar bilan to'ldirilgan qoplar orilgan 30 ta xachir berish majburiyatini oladi. Lekin u faqat yigirmata xachir va shunga loyiq tangalar topa oladi, xolos. Majburiyatning qolgan qismi evaziga Peroz o'zining go'dak o'g'li Kubodni (488–531) garovga qoldiradi va ikki yil davomida eftaliylarga katta hiroj to'lab turishga majbur bo'ladi. Bu xirojni Peroz aholiga og'ir jon boshi soliqlarini solish yo'li bilan to'laydi.

Shu munosabat bilan arman tarixchisi Lazar Parbskiy Peroz Eronni eftaliylarga sotganligini va uning hech qachon bu qullikdan qutula olmasligini zorlanib yozgan edi. Majburiyatdagi qarzni to'lab bo'lgan Peroz o'zini eftaliylarga do'st qilib ko'rsatmoqchi bo'ladi va o'z singillaridan birini eftaliylar podshosi Vaxshunvorga

xotinlikka taklif qiladi. Biroq Peroz singlisining o'rniga boshqa qizni yuborib Vaxshunvorni aldaydi. Vaxshunvor bunga javoban eftaliylarning iltimosiga ko'ra Erondan kelgan harbiy maslahatchilarni kaltaklatadi va o'ldiradi.[9, b. 110].

484-yilda eftaliylar yana eronliklarni tor-mor qildi. Ayrim mualliflarning guvohlik berishlariga qaraganda, eftaliylar jangdan oldin yaxshi niqoblangan chuqur handaq (ayrim tarixchilarning fikricha, u suv bilan to'ldirilgan) — bo'ri jari (qopqon chuqurlik) qazigan. Peroz Eron qo'shinlarining katta qismi bilan birga mana shu bo'ri jarida halok bo'ldi. Eftaliylar harbiy qudratining isboti sifatida ularning eronliklarga qarshi muvaffaqiyatli olib borgan urushlari misol bo'ladi. Bir necha marotaba Rim qo'shinlarini tor-mor etgan Eron, Markaziy osiyolik eftaliylarning qarshisida qo'rquvdan titrar edi.[8, b. 117].

Eftalitlar 467-473 yillarda Sug'dda mustahkam o'rnashib olgan bo'lsalar, 477-520 -yillar mobaynida Gandxarni ishg'ol etib, u yerdan kidariylarni siqib chiqaradilar. 490 yilda eftalitlar Urumchini, 497-509 yillar orasida Qashg'arni bosib, deyarli butun SHarqiy Turkistonda o'z hukmronliklarini o'rnatadilar. Shunday qilib, VI asrning boshlariga kelib, eftalitlar anchagina katta hududlarni egallagan edilar, ko'pchilik manbalar eftalitlarning dastavval ko'chmanchi xalqlar bo'lib, keyinchalik o'troqlashganligi haqida ma'lumot beradi. Shuning uchun ham ayrim tadqiqotchilar ularni ko'chmanchilar deb hisoblasa, ayrimlari ularni shahar va qishloqlarda yashaganligini ta'kidlaydilar. Ko'pchilik tadqiqotchilarning e'tirof etishlaricha, eftalitlar davlati unchalik ham mustahkam emas edi va shuning uchun ham uzoq yashamadi.[3, b. 128].

Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot. Eftalitlar yuqorida eslatilgan ulkan hududda boshqaruvni qo'lga kiritgach, obod dehqonchilikvohalariga, rivojlangan shahar va qishloqlarga, savdo yo'llariga egabo'ladilar. Vaqt o'tishi bilan esa mahalliy aholi bilan aralashib ketadilar. Natijada bevosita mahalliy aholining vorisiga aylanadilar. Shu boisdan 568-569-yillarda Vizantiya imperatori Yustin II huzuridabo'lgan turk elchisi imperatorning "Eftalitlar shaharlarda yashaydilar yoki qishloqlardami?" degan savoliga: "Ular shaharlik sulolalar, oliy hazratlari", deb javob bergan.

Darhaqiqat, olib borilgan arxeologik tadqiqotlar ilk o'rta asrlar O'rta Osiyoda shahar madaniyati taraqqiy etganligidan dalolat beradi. Jumladan, V asrda Panjikentda nisbatan qadimgiroq bo'lgan qishloqo'rniga yangi shahar barpo etiladi. Umumiy maydoni 18 gektar bo'lgan bu shahar VI asrning boshlariga kelib mustahkam himoya tartibiga, ibodatxona, saroy va ijtimoiy jihatdan ajralib turadigan turar joylarga ega edi. Sug'd shaharlaridan yana biri Poykandda ham qizg'in tadqiqot ishlari olib borilgan. Yanada qadimgiroq davrda (antik) asos solingan ushbu ko'hna shahar ilk o'rta asrlar davriga kelib kengayib boradi va V-VI asrning boshlariga kelganda uch qismli yirik markazga aylanadi hamda umumiy maydoni 18 gektarga yetadi. Poykand qazishmalarida ilk o'rta asrlarga oid ko'plab moddiy madaniyat buyumlari topilgan bo'lib, ular haqiqatdan ham Poykand bu davrda arab manbalarida ta'riflanganidek, "Madina-at-tujjor" — "Savdogarlar shahri" bo'lganligidan dalolat beradi.

Ilk o'rta asrlar davri ijtimoiy-iqtisodiy hayotda muhim ahamiyatga ega bo'lgan yirik markazlardan (ehtimol, poytaxt shaharlardan) biri Buxoro edi. To'g'ri to'rtburchak shakldagi ushbu shaharning asosi 21 gektar bo'lib, bu yerda mustahkam himoya inshootlari, hukmdor saroyi, mafkuraviy inshootlar, turar-joy qoldiqlari ochib

o'rganilgan. Topilgan moddiy madaniyat buyumlari Buxoro ilk o'rta asrlardan boshlab O'rta Osiyoning yirik madaniy va iqtisodiy markazlaridan biri bo'lganligidan dalolat beradi. Shuningdek, bu davrda shaharning yettita darvozasi bo'lib, bu holat uning muhim savdo-tranzit yo'li ustida joylashganligidan dalolat beradi. Bu davrda Termiz va uning atroflarida ham shaharsozlik madaniyatining jadallik bilan rivojlanganligini kuzatishimiz mumkin. Termiz atrofidagi Zartepa shahri ana shunday shaharlardan biridir. Antik davrda kichik manzilgoh paydo bo'lgan Zartepa ilk o'rta asrlarga kelib maydoni 17 gektar bo'lgan yirik shaharga aylanadi.[4, b. 180-181].

Kushonlar davridagi kabi eftaliylar zamonida hamsaltanat yakka hukmdor tomonidan boshqarilgan. Xitoy manbalariga ko'ra, taxt otadan bolaga qolmay, shu suloladan kim loyiq deb topilsa, o'sha taxtga o'tirgan. Demak, ana shu nomzodni aniqlab taqdim etadigan qandaydir bir kengash ham mavjud bo'lgan. Bu kengash sulolaning mo'tabar namoyandalari hamda saltanat arkonidan iborat bo'lgan bo'lsa ham ehtimoldan xoli emas. Eng muhimi, eftaliylar davrida davlatimiz qonunlar asosida boshqarilganini alohida ta'kidlash lozim. Rumlik Prokopiyy (VI asr): "Eftaliylar davlatni qonunlar asosida boshqaradilar", deb yozarkan, ushbu qonunlar turkiy tuzuklar bo'lgani shubhasizdir.

Shuni ham yoddan chiqarmaslik kerakki, bunday ulkan saltanatni boshqarishda yuksak darajada faoliyat ko'rsatuvchi markaziy hokimiyatga erishish qiyin. Shuning uchun Shimoliy Hindiston hududlarida va, ehtimol, boshqa ba'zi viloyatlarda ham boshqaruv mahalliyxonadonlar (sulolalar) tomonidan olib borilgan.

Eftaliylar davrida davlatimizning poytaxti qayerda bo'lgani haqida ham aniq ma'lumotlar yo'q. Ba'zilar Boykentni (Poykent) ko'rsatsa, boshqalari Badaxshonda deb biladilar. Shu o'rinda ba'zi bir tarixiy an'analar yodda tutilsa yomon bo'lmaydi. Masalan, kushonlar poytaxti bir muddat Sug'diyonada joylashgan va keyinchalik ma'lum sabablarga ko'ra Peshovarga ko'chirilgan. Shunga o'xshash eftaliylar markazi ham avval Baqtriyada, so'ngra sosoniylar xavfi uzil-kesil yo'qqa chiqgach hamda saltanat chegaralari Sharqiy Turkiston hisobiga ham kengaygach, poytaxt Boykentga ko'chirilgan bo'lishi mumkin. [2, b. 76-77].

Eftalitlarning bir qismi ko'chmanchi chorvador bo'lsa, ikkinchi - kattaroq qismi shahar va qishloqlarda yashaydigan o'troq aholi bo'lgan. Toxariston va Sug'da dehqonchilik va bog'dorchilik rivoj topgan. Qachqadaryo va Zarafshon vodiylarida g'alladan tashqari sholi ham yetishtirilgan. Xitoy manbalarida qayd etilishicha, V -VI asrlarda Sharqiy Turkiston va O'rta Osiyo yerlarida ko'plab g'o'za ekilar edi. O'rta Osiyo paxta tolasi Xitoyda ham mashhur bo'lgan. Tog` va tog` oldi yerlardagi aholi yilqichilik bilan shug'ulangan. Farg`ona vodiysida zotdor arg`umo`qlar ko`paytirilar edi. Yangi yer egaligi munosabatlarining tarkib topa boshlasi bilan sug`oriladigan yer maydonlarining ma'lum bir qismi mulkdor zodogon tabaqa vakillari - "dehqonlar" qo'lida to`plana boshlagan edi. Buning natijasida qishloq jamoasining erkin qulchilari ma'lum darajada zodogon dehqonlar asoratiga tushib, ularga qaram kadivarlarga aylanib borgan.

Obikor yerlarining bir qismi ibodatxonalar mulki hisoblangan. Bunday yerlar "vag`ize" deb yuritilgan. Yaylovlarning asosiy qismi oqsoqol zodogonlarqo'lida bo'lgan. Eftalitlar orasida ishtimoiy tabaqalanish ham kuchli bo'lgan. Ular orasida yer egaligi munosabatlari shakillanishi bilan bir qatorda ibtidoiy jamoa tuzimi asoratlari

hali saqlanib qolgan edi. Xitoy manbalarida qayd qilinishicha, eftalitlarda poliandriya (ko`p erlik) ham tarqalgan edi. Bir necha aka - ukalar umumiy bitta xotin bo`lib, ayolning boshidagi qalpog`ining burchaklari soniga ko`ra aka - ukalar nechtaligi bilish mumkin edi.[6, b. 125].

Eftaliylar Buyuk Ipak yo`lining egalari bo`lib, Feofan Vizantiyskiy ma'lumotlariga ko`ra, Kaspiy dengizidagi savdo portlariga ham egalik qilganlar va xalqaro savdoda faol ishtirok etganlar. Ular Eron, Vizantiya, Hindiston va Xitoy bilan savdo qilganlar. Jumladan, Sug`dning Rivdad shahridan VI asrning birinchi choragida eftaliylar Xitoyga elchilar yuborganlar. Avvalgi davrlarda bo`lgani kabi, Xitoy bilan Vizantiya o`rtasidagi savdoda asosan eftaliylar tasarrufidagi sug`diylar vositachilik qilganlar. Bu savdoda vositachilik qilishga Sosoniylar davlati ham da`vogarlik qilgan. Sug`diylar esa o`sha davrda xalqaro savdo aloqalarida muhim o`rin tutishda davom etganlar.

Vizantiya, Suriya va Xitoy manbalarining ma'lumotlariga qaraganda, Xitoy va Vizantiya o`rtasidagi savdoning asosiy mahsulotlari ipak, shisha, ziravorlar, qimmatbaho toshlar va bo`yoqlar bo`lgan.

Eftaliylar bir necha turdagi tangalarga ega bo`lganlar. Eftaliylar davlati tarkibiga kirgan xap bir mulk o`zining alohida turdagi tangalarini zarb qilgan. Tanga massasidagi farqlar eftaliylar davrida va undan keyin ham mulklarning siyosiy jihatdan mustaqil bo`lganini ko`rsatadi. Eftaliylarning kumush tangalarini o`rganish ancha oldin boshlangan. Bir qator tadqiqotchilar bu tangalarda pahlaviy yozuvlardan tashqari noma'lum yozuvlar ham mavjudligini aniqlaganlar va ular Eron tomonidan eftaliylarga to`lov qilish uchun maxsus zarb etilgan bo`lishi mumkinligini taxmin qilganlarlar. Shu maqsadda tangalarga qo`shimcha ravishda eftaliy yozuvlari tushirilgan bo`lishi mumkin yoki ehtimol, bu tangalar eftaliylarning o`zlari tomonidan Eron bilan savdo qilish uchun zarb qilingan. Ammo tadqiqotchilarning ko`pchiligi ushbu tangalar Sosoniylar tomonidan xiroj to`lash uchun zarb qilingan deb hisoblaydi.

Eftaliylar kumush tangalar uchun sosoniylar uslubini, mis tangalar uchun esa kushonlar uslubini qabul qilganlar. Milodiy V asrga oid eftaliylarning past probali dirhamlarining O`rta Osiyo ikki daryo oralig`idagi xarobalarda ko`plab topilishi bu pul birliklarining hududda keng muomalada bo`lganini ko`rsatadi. Tangalarning old tomonida toj kiygan podshoh boshi (sosoniylar bosh kiyimlari namunasi asosida), orqa tomonida esa olov mehrobi va uni qo`riqlab turgan ikki soqchi tasvirlangan. Tangalarning diametri taxminan 30 mm (Surxondaryo vohasidan topilgan nusxalar), og`irligi esa 2,81 gramm bo`lgan. Shuningdek, 1973-yilda Qoratepa qazishmalari davomida eftaliylar zarbiga oid ilk kumush tangalardan biri topilganini ham aytib o`tish kerak. Bu tangananing old tomonida ichida uch bargli shakl tushirilgan yuraksimon tamg`a mavjud edi. Ehtimol, Xorazmning ilk afrig`iy tangalari bilan eftaliy tangalari o`rtasida bog`liqlik bo`lgan (bosh kiyim shakllarining o`xshashligi, bosh suyagi deformatsiyasining tasvirlanishi va tamg`alarning yozilishi). Bu esa eftaliylarning mahalliy aholi, xususan xorazmiylar bilan genetik bog`liqligi haqidagi fikrni tasdiqlaydi.[7, b. 96 -97]

Bir asr hukmronlik qilgan Eftaliylar davlati shimoldan Turk xoqonligi, janubdan esa Sosoniylar Eronining 560–570-yillarda ikki tomondan bergan zarbalari

natijasida parchalanib ketdi. Eftaliylar davlatining Amudaryodan shimoldagi hududlari Turk xoqonligi tasarrufiga, janubdagi hududlari esa Sosoniylar nazoratiga o'tdi.

Xulosa qilib aytganda, eftaliylar davlati V–VI asrlarda O'rta Osiyo tarixida muhim o'rin tutgan qudratli davlatlardan biri edi. Ular keng hududlarni o'z nazoratiga olib, savdo, hunarmandchilik va xalqaro aloqalarning rivojlanishiga katta hissa qo'shdilar. Ayniqsa, Buyuk Ipak yo'lidagi faoliyati orqali Sharq va G'arb o'rtasidagi iqtisodiy hamda madaniy munosabatlarni mustahkamladilar. Eftaliylar davri O'rta Osiyoda davlat boshqaruvi, pul muomalasi va madaniy taraqqiyotning rivojlanish bosqichlaridan biri sifatida tarixda muhim iz qoldirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Asqarov A. va boshqalar. O'zbekiston tarixi. 1-jild. – Toshkent: Ma'naviyat, 2023. – 456 b.
2. Azamat Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи (энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). Масъул муҳаррир: Б. Ахмедов. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 368 б.
3. Eshov B. O'zbek davlatchiligi va boshqaruv tarixi. – Toshkent, 2012. – 426 b.
4. Эшов Б.Ж., Одилов А.А. Ўзбекистон тарихи. I жилд. – Тошкент, 2014. – 489 б.
5. Murodova D.H. O'zbekiston hududidagi ilk o'rta asr davlatlari: eftaliylar davlati va Turk xoqonligi. – T.: O'zDJTI nashriyot-matbaa bo'limi, 2011. – 66 b.
6. Murtazaeva R.X. O'zbekiston tarixi. – T.: O'AJBNT, 2003. – 675 b.
7. Курбанов А.Д. Эфталиты: Очерки истории. – СПб.: Европейский Дом, 2007. – 166 с.
8. Самаров Р.С. ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи (Ўзбекистон ҳарбий санъати тарихи). – Тошкент: Маънавият, 2023. – 458 б.
9. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 1-jild. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2010. – 512 b.